

MINTAQAVIY IQTISODIYOTDA YUQORI QO‘SHILGAN QIYMATLI MAHSULOTLAR EKSPORTINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI

Mamadjanova Tuyg‘unoy Axmadjanovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
“Iqtisodiyot” kafedrası mudiri, i.f.f.d., dotsent

ORCID: 0009-0009-2305-6123

E-mail: tuygunoy_mamadjanova@tues.uz

Аннотация

Mazkur tadqiqotda mintaqaviy iqtisodiyotda yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar eksportini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilindi. Tadqiqot mahsulot fazosi va iqtisodiy murakkablik konsepsiyalariga tayangan holda O‘zbekiston eksport tarkibidagi tarkibiy o‘zgarishlarni baholadi. Tahlil natijalari eksport portfelining diversifikatsiyalanishi, texnologik jihatdan murakkab mahsulotlar ulushining ortishi hamda yangi eksport yo‘nalishlarining shakllanishi iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatganini tasdiqladi. To‘qimachilik sanoati misolida qayta ishlash chuqurligini oshirish va tayyor mahsulotlar ulushini kengaytirish imkoniyatlari aniqlandi. Tadqiqot natijalari yuqori qo‘shilgan qiymatli eksportni rag‘batlantirish, global qiymat zanjirlarida ishtirokni kengaytirish va iqtisodiy murakkablik darajasini oshirish mintaqaviy iqtisodiy o‘sishning muhim omili ekanligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: mintaqaviy iqtisodiyot, eksport, qo‘shilgan qiymat, iqtisodiy murakkablik, mahsulot fazosi, diversifikatsiya, to‘qimachilik sanoati, global qiymat zanjiri.

Аннотация

В исследовании были проанализированы теоретические и практические аспекты развития экспорта продукции с высокой добавленной стоимостью в региональной экономике. На основе концепций продуктового пространства и экономической сложности была дана оценка структурным изменениям экспортного портфеля Узбекистана. Результаты показали, что диверсификация экспорта, увеличение доли технологически сложной продукции и формирование новых экспортных направлений способствовали экономическому развитию. На примере текстильной промышленности были выявлены возможности углубления переработки сырья и расширения производства готовой продукции. Полученные результаты подтвердили, что стимулирование экспорта продукции с высокой добавленной стоимостью, расширение участия в глобальных цепочках создания стоимости и повышение уровня экономической сложности выступили важными факторами устойчивого регионального роста.

Ключевые слова: региональная экономика, экспорт, добавленная стоимость, экономическая сложность, продуктивное пространство, диверсификация, текстильная промышленность, глобальные цепочки стоимости.

Abstract

This study examined the theoretical and practical aspects of developing high value-added exports in the regional economy. Based on the concepts of product space

and economic complexity, the research assessed structural changes in Uzbekistan's export portfolio. The findings showed that export diversification, growth in technologically sophisticated products, and the emergence of new export categories contributed positively to economic development. Using the textile industry as a case study, the research identified opportunities for deeper processing and expansion of finished product exports. The results demonstrated that promoting high value-added exports, increasing participation in global value chains, and enhancing economic complexity served as important drivers of sustainable regional economic growth. The study confirmed the relevance of capability-based export development strategies for strengthening competitiveness and expanding long-term growth opportunities.

Keywords: regional economy, export, value added, economic complexity, product space, diversification, textile industry, global value chains.

KIRISH

Mintaqaviy iqtisodiyotning tashqi savdo orqali shakllanadigan daromadi ko'p jihatdan eksport qilinayotgan mahsulotlarning qayta ishlanish darajasi va ularda yaratilgan qo'shilgan qiymat hajmiga bog'liq. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar eksportiga tayanadigan iqtisodiyotlar xalqaro bozorlarda barqaror raqobat ustunligini shakllantiradi, eksport daromadlarini oshiradi hamda uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Shu sababli eksport tarkibini takomillashtirish, xomashyo va yarim tayyor mahsulotlar ulushini qisqartirish, tayyor hamda texnologik jihatdan murakkab mahsulotlar ulushini kengaytirish mintaqaviy iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston iqtisodiyotida ham eksport salohiyatini oshirish va eksport tarkibini diversifikatsiya qilish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Natijada mamlakat tashqi savdo aylanmasi 2024-yilda 65,9 milliard AQSH dollarini tashkil etib, eksport hajmi avvalgi yilga nisbatan 8,4 foizga oshgan holda 26,95 milliard AQSH dollariga yetdi [1]. Mazkur ko'rsatkichlar tashqi savdo faoliyatining kengayib borayotganini va milliy iqtisodiyotning xalqaro bozorlardagi ishtiroki kuchayib borayotganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, eksportdan olinayotgan daromadning asosiy qismi qaysi bosqichda shakllanayotgani, mahsulotlarning qayta ishlanish chuqurligi va yaratilayotgan qo'shilgan qiymat hajmi masalalari alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ushbu jarayonni to'qimachilik sanoati misolida yaqqol kuzatish mumkin. 2024-yilda to'qimachilik mahsulotlari eksporti 2,87 milliard AQSH dollarini tashkil etib, mamlakat umumiy eksportining 10,6 foiziga teng bo'ldi [1]. Eksport tarkibida ip-kalava mahsulotlari 43,2 foiz, tayyor to'qimachilik buyumlari esa 39,2 foiz ulushni egalladi. Mahsulotlar kesimida ip-kalava eksporti 1,24 milliard AQSH dollariga, tayyor to'qimachilik buyumlari 1,12 milliard AQSH dollariga, trikotaj polotnosi 292,1 million AQSH dollariga va tikuvchilik buyumlari 145,9 million AQSH dollariga teng bo'ldi [2]. Mazkur ko'rsatkichlar qayta ishlashning yuqori bosqichlariga o'tish jarayoni davom etayotganini ko'rsatsa-da, qiymatning sezilarli qismi hali ham yarim tayyor mahsulotlar hisobiga shakllanayotganini anglatadi. Shu bilan birga, tayyor va

brendlangan mahsulotlar ulushini oshirish uchun mavjud imkoniyatlar ham yuqori ekanligini tasdiqlaydi.

Eksport tarkibi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik iqtisodiy adabiyotlarda keng asoslangan. Tadqiqotlar davlat eksport qilayotgan mahsulotlarning tarkibi va murakkabligi uning kelgusidagi iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini belgilovchi muhim omillardan biri ekanligini ko'rsatadi [3]. Yuqori texnologiyali va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar eksportining kengayishi ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, yangi bilim va texnologiyalarni jalb qiladi hamda iqtisodiyotning tarkibiy jihatdan modernizatsiyalashuviga xizmat qiladi.

O'zbekistonning so'nggi yillardagi natijalari ushbu nazariy qarashlarning amaliy tasdig'i sifatida namoyon bo'lmoqda. Xususan, mamlakat iqtisodiy murakkablik reytingida so'nggi besh yil davomida 25 pog'onaga ko'tarilib, 145 davlat orasida 80-o'rinni egalladi. Shu davrda eksport portfeliga 2,1 milliard AQSH dollarlik daromad keltirgan 67 ta yangi mahsulot qo'shildi [4]. Transport vositalari, sanoat uskunalari va elektrotexnika mahsulotlari kabi texnologik jihatdan murakkab yo'nalishlarda yuqori o'sish sur'atlarining qayd etilishi eksport tarkibining sifat jihatdan takomillashib borayotganini hamda yuqori qiymatli mahsulotlar ulushini kengaytirish bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar ijobiy natija berayotganini ko'rsatadi.

Mintaqaviy iqtisodiyotda yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar eksportini rivojlantirish masalasi ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi. Ushbu maqolaning maqsadi yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar eksportini rivojlantirishning nazariy asoslarini tahlil qilish, O'zbekiston tajribasi misolida mavjud tendensiyalarni baholash hamda eksport tarkibini yanada murakkablashtirish va raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot mahsulot fazosi va iqtisodiy murakkablik konsepsiyalariga tayangan holda mintaqaviy iqtisodiyotning eksport salohiyatini oshirish imkoniyatlarini yoritadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar eksportini rivojlantirish masalasi zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodiy o'sish, sanoat transformatsiyasi va xalqaro raqobatbardoshlikni ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida keng o'rganilgan. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar eksport hajmini oshirishdan ko'ra eksport tarkibini takomillashtirish, texnologik murakkab mahsulotlar ulushini kengaytirish va ishlab chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirish masalalariga ko'proq e'tibor qaratmoqda. Shu nuqtai nazardan mahsulot fazosi (Product Space) nazariyasi yuqori qo'shilgan qiymatli eksportni shakllantirishning nazariy asoslaridan biri hisoblanadi. Mazkur yondashuvga ko'ra, davlatlar va hududlarning yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish imkoniyati mavjud ishlab chiqarish kompetensiyalari, texnologik bilimlari va tajribasi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Mahsulot fazosi ishlab chiqarish qobiliyatlari o'rtasidagi bog'liqliklarni tarmoq shaklida ifodalaydi hamda yangi faoliyat turlariga o'tish ehtimoli mavjud salohiyatga yaqin mahsulotlarda yuqoriroq bo'lishini ko'rsatadi [5]. Natijada iqtisodiy rivojlanish tasodifiy emas, balki mavjud imkoniyatlar asosida bosqichma-bosqich amalga oshadigan jarayon sifatida talqin etiladi.

Mahsulot fazosi nazariyasining mantiqiy davomi sifatida iqtisodiy murakkablik konsepsiyasi shakllangan. Ushbu yondashuv davlat yoki hudud iqtisodiyotining ishlab chiqarish salohiyatini miqdoriy jihatdan baholash imkonini beradi. Iqtisodiy murakkablik eksport qilinayotgan mahsulotlarning xilma-xilligi va ularning xalqaro miqyosdagi noyoblighi asosida hisoblanadi hamda iqtisodiyotda mavjud boʻlgan yashirin bilimlar, texnologiyalar va ishlab chiqarish qobiliyatlari majmuasini aks ettiradi [6]. Tadqiqotlar yuqori iqtisodiy murakkablikka ega mamlakatlar koʻproq texnologik sigʻimli mahsulotlar ishlab chiqarishi, innovatsion faoliyatni jadallashtirishi va yuqori daromad darajasiga erishishini tasdiqlaydi. Shu sababli iqtisodiy murakkablik koʻrsatkichi bugungi kunda mamlakatlarning uzoq muddatli rivojlanish salohiyatini baholovchi muhim indikatorlardan biri sifatida qaralmoqda.

Yuqori qoʻshilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish va eksportini kengaytirishning iqtisodiy mexanizmlari “oʻzini kashf etish” (self-discovery) nazariyasi orqali ham izohlanadi. Mazkur yondashuvga koʻra, yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan bogʻliq xarajatlar, texnologik talablar va bozor imkoniyatlari haqidagi maʼlumotlar dastlab nomaʼlum boʻladi. Ushbu bilimlarni shakllantirish katta tavakkalchilik va xarajatlarni talab qiladi. Natijada yangi yoʻnalishni birinchi boʻlib oʻzlashtirgan tadbirkor yaratgan bilim va tajriba keyinchalik boshqa ishlab chiqaruvchilar tomonidan ham foydalanilishi mumkin boʻlgan jamoaviy resursga aylanadi. Shu sababli innovatsion va yuqori qiymatli yoʻnalishlarga investitsiya kiritish bozor mexanizmlari orqali yetarli darajada ragʻbatlantirilmasligi mumkin [7]. Mazkur holat davlat tomonidan maqsadli qoʻllab-quvvatlash, sanoat siyosati va eksportni ragʻbatlantirish choralarining iqtisodiy asoslarini shakllantiradi.

Eksport diversifikatsiyasi masalasi ham yuqori qoʻshilgan qiymatli mahsulotlar eksportini rivojlantirish bilan uzviy bogʻliqdir. Empirik tadqiqotlar davlatlar iqtisodiy rivojlanishining dastlabki va oʻrta bosqichlarida mahsulot turlarini koʻpaytirish va eksport bazasini kengaytirish orqali oʻsishga erishishini koʻrsatadi. Daromad darajasi yuqori bosqichga yetgandan keyingina iqtisodiyotlar nisbatan murakkab va yuqori texnologiyali yoʻnalishlarga ixtisoslasha boshlaydi [8]. Ushbu qonuniyat rivojlanayotgan va oʻrta daromadli davlatlar uchun eksport tarkibini diversifikatsiya qilish hamda yangi mahsulot yoʻnalishlarini shakllantirish strategik ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Mintaqaviy iqtisodiyotlar darajasida esa diversifikatsiya jarayoni bogʻliqlik (relatedness) tamoyili orqali izohlanadi. Tadqiqotlar hududlar oʻzida mavjud boʻlgan ishlab chiqarish tajribasi va texnologik kompetensiyalarga yaqin boʻlgan, biroq murakkabligi yuqoriroq faoliyat turlariga oʻtgan taqdirda yanada barqaror iqtisodiy natijalarga erishishini koʻrsatadi [9]. Mazkur yondashuv keyinchalik aqlli ixtisoslashuv (smart specialization) konsepsiyasining shakllanishiga asos boʻlib xizmat qildi. Aqlli ixtisoslashuv hududlarning mavjud salohiyatini hisobga olgan holda yuqori bilim sigʻimiga ega istiqbolli tarmoqlarni rivojlantirishni nazarda tutadi.

Hududning xalqaro savdo tizimidagi oʻrni va eksport tarkibi ham iqtisodiy rivojlanish istiqbollari sezilarli taʼsir koʻrsatadi. Eksport portfelida mavjud boʻlgan nisbiy ustun mahsulotlar va ularga yaqin joylashgan murakkab mahsulotlar hududning

keyingi rivojlanish yoʻnalishlarini belgilaydi [10]. Shu bilan birga, ishlab chiqarish tarmogʻining ichki tuzilishi va mahsulotlar oʻrtasidagi bogʻliqlik darajasi davlatlarning yangi mahsulot turlariga oʻtish imkoniyatlarini tushuntirishda muhim omil hisoblanadi. Iqtisodiy oʻsishning notekisligi ham koʻp jihatdan bilimlar, texnologiyalar va ishlab chiqarish qobiliyatlarining iqtisodiyot tarmoqlari boʻyicha taqsimlanishi bilan izohlanadi [11].

Xalqaro tashkilotlar va ilmiy markazlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar koʻplab rivojlanayotgan iqtisodiyotlar eksportida xomashyo va past qayta ishlangan mahsulotlar ulushi yuqoriligicha qolayotganini koʻrsatadi. Bunday sharoitda qoʻshilgan qiymat zanjirlarini chuqurlashtirish, qayta ishlash bosqichlarini kengaytirish va yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish iqtisodiy diversifikatsiya hamda barqaror rivojlanishning asosiy omili sifatida baholanadi [12]. Ayniqsa, global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuv, innovatsion faoliyatni kuchaytirish va mahalliy ishlab chiqarish kompetensiyalarini rivojlantirish yuqori qoʻshilgan qiymatli eksportni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavjud ilmiy adabiyotlar mahsulot fazosi, iqtisodiy murakkablik, eksport diversifikatsiyasi va qiymat zanjirlari nazariyalarini chuqur yoritgan boʻlsa-da, ularni Oʻzbekistonning mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishi va eksport strategiyasiga amaliy tatbiq etish masalalari hali ham dolzarbligicha qolmoqda. Xususan, hududlarning mavjud ishlab chiqarish salohiyatidan kelib chiqib yuqori qoʻshilgan qiymatli mahsulotlar eksportini kengaytirish, yangi eksport yoʻnalishlarini shakllantirish hamda iqtisodiy murakkablik darajasini oshirish mexanizmlarini aniqlash qoʻshimcha ilmiy tadqiqotlarni talab etadi. Ushbu maqola aynan shu masalalarni Oʻzbekiston tajribasi misolida tahlil qilishga va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga yoʻnaltirilgan.

METODOLOGIYA

Tadqiqot nazariy-tahliliy va tavsifiy-empirik yondashuvlarning uygʻunligiga asoslanadi. Konseptual asos sifatida mahsulot fazosi va iqtisodiy murakkablik nazariyalari hamda eksport sifat jihatdan rivojlanish tamoyili qabul qilingan. Bunday tanlov nazariy modellarni aniq mintaqaviy maʼlumotlar bilan bogʻlash imkonini beradi.

Qoʻshilgan qiymat oʻlchovini talqin qilishda global qiymat zanjirlari va eksportdagi ichki qoʻshilgan qiymat ulushi boʻyicha uslubiy yondashuvlarga tayanildi. Ushbu yondashuv yalpi eksport koʻrsatkichlari ortida turgan haqiqiy milliy qiymat hissasini ajratib koʻrsatish imkonini beradi va past hamda yuqori qayta ishlangan bosqichlarni qiyoslashga xizmat qiladi.

Empirik baza ochiq va tekshirilishi mumkin boʻlgan manbalardan shakllantirildi. Oʻzbekiston tashqi savdosi va tarmoq tuzilmasi boʻyicha koʻrsatkichlar rasmiy statistikaga asoslangan nashrlardan va mahsulot turlari kesimidagi taqsimotdan olindi. Iqtisodiy murakkablik koʻrsatkichlari Garvard Oʻsish laboratoriyasining Iqtisodiy murakkablik atlasidan va uning tahliliy sharhlaridan aniqlandi.

Tahlilga faqat havolasi mavjud, manbalari aniq koʻrsatkichlar kiritildi; taxminiy yoki tasdiqlanmagan raqamlardan foydalanilmadi. Vaqt doirasi 2024-yil

ko'rsatkichlari va so'nggi besh yillik tendensiyani qamrab oladi, geografik fokus esa O'zbekiston mintaqaviy iqtisodiyoti bo'lib qoladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston eksportining umumiy hajmi 2024-yilda 26,95 milliard AQSH dollariga yetdi va mamlakat tashqi savdo faoliyatida yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini kengaytirish bo'yicha ijobiy natijalar qayd etildi [1]. So'nggi yillarda amalga oshirilgan sanoatni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va eksport geografiyasini kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar eksport tarkibining sifat jihatdan takomillashishiga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, qayta ishlash darajasi yuqori mahsulotlar ulushining oshishi iqtisodiy murakkablik darajasini yuksaltirish hamda xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni kuchaytirish nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur jarayonni to'qimachilik sanoati misolida yaqqol kuzatish mumkin. To'qimachilik sanoati O'zbekiston eksportining yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lib, 2024-yilda 2,87 milliard AQSH dollarlik mahsulot eksportini amalga oshirdi va umumiy eksportning 10,6 foizini ta'minladi [1]. Tarmoq eksportining qayta ishlash bosqichlari bo'yicha tarkibi quyidagi jadvalda keltirilgan.

1-jadval

O'zbekiston to'qimachilik eksportining qayta ishlash bosqichlari bo'yicha tarkibi, 2024-yil¹

Qayta ishlash bosqichi	Mahsulot turi	Eksport qiymati, mln AQSH dollar	Manba
Yarim tayyor	Ip-kalava	1 240	[2]
O'rta bosqich	Trikotaj polotnosi	292,1	[2]
Tayyor mahsulot	Tayyor to'qimachilik buyumlari	1 120	[2]
Tayyor mahsulot	Tikuvchilik (kiyim) buyumlari	145,9	[2]
Jami	To'qimachilik mahsulotlari	2 870	[1]

Izoh: umumiy eksportdagi ulush 10,6 foizni tashkil etgan; ip-kalava 43,2 foizni, tayyor to'qimachilik buyumlari 39,2 foizni egallagan [1].

1-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, to'qimachilik eksportining muhim qismi hali ham yarim tayyor mahsulotlar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Xususan, ip-kalava eksporti 1,24 milliard AQSH dollarini tashkil etib, tarmoq eksportining eng katta ulushini egallagan [2]. Bu holat paxta xomashyosini qayta ishlash zanjirining muhim qismi mamlakat ichida shakllanayotganini ko'rsatsa-da, yuqori qo'shilgan qiymat yaratish imkoniyatlari hali ham mavjudligini anglatadi.

Shu bilan birga, tayyor to'qimachilik buyumlari eksportining 1,12 milliard AQSH dollariga yetgani va umumiy tarmoq eksportining qariyb 40 foizini tashkil etgani qayta ishlash chuqurligi ortib borayotganidan dalolat beradi [2]. Bu natija so'nggi yillarda tekstil klasterlarini rivojlantirish, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish va

¹ Manbalar asosida muallif ishlanmasi

eksportga yoʻnaltirilgan korxonalarni qoʻllab-quvvatlash boʻyicha amalga oshirilgan chora-tadbirlarning amaliy samarasi sifatida baholanishi mumkin.

Tikuvchilik mahsulotlari eksporti 145,9 million AQSH dollarini tashkil etgan boʻlsa-da, aynan ushbu segment eng yuqori qoʻshilgan qiymat yaratish imkoniyatiga ega hisoblanadi [2]. Jahon amaliyoti shuni koʻrsatadiki, brendlangan tayyor kiyim-kechak va moda mahsulotlari qiymat zanjirining eng yuqori daromad shakllanadigan bosqichlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli tikuv-trikotaj sanoatida dizayn, marketing, logistika va xalqaro savdo tarmoqlariga integratsiyani kuchaytirish eksport daromadlarini yanada oshirish imkonini beradi.


Toʻqimachilik tarmogʻidagi oʻzgarishlar umumiy eksport tarkibidagi transformatsiyalar bilan ham uygʻun rivojlanmoqda. Soʻnggi besh yil davomida Oʻzbekiston eksporti oʻrtacha yiliga 20,5 foizga, neftdan tashqari eksport esa 21,9 foizga oʻsdi [4]. Bu koʻrsatkichlar mamlakat eksportining faqat hajm jihatidan emas, balki tarkibiy jihatdan ham rivojlanayotganini tasdiqlaydi. Ayniqsa, yuqori texnologiyali va murakkab mahsulotlar eksportidagi oʻsish surʼatlari alohida eʼtiborga loyiqdir.

Transport vositalari eksporti 89 foizga, sanoat uskunalari eksporti 77 foizga va elektrotexnika mahsulotlari eksporti 59 foizga oshdi [4]. Mazkur natijalar eksport tarkibining texnologik jihatdan murakkablashib borayotganini hamda yangi sanoat yoʻnalishlari shakllanayotganini koʻrsatadi. Bunday tendensiyalar mahsulot fazosi nazariyasida qayd etilganidek, mavjud ishlab chiqarish kompetensiyalaridan kelib chiqib murakkabroq mahsulotlarga bosqichma-bosqich oʻtish jarayonini tasdiqlaydi [5].

Diversifikatsiya jarayonining muhim natijalaridan biri eksport nomenklaturasining kengayib borayotganidir. Eksport portfeliga 2,1 milliard AQSH dollarlik qoʻshimcha daromad keltirgan 67 ta yangi mahsulot qoʻshildi [4]. Bu esa ishlab chiqarish bazasi kengayayotganini va yangi tarmoqlarda raqobatbardosh mahsulotlar shakllanayotganini anglatadi. Oʻzbekiston jahon bozorida nisbiy ustunlikka ega boʻlgan 162 turdagi mahsulot ishlab chiqarayotgan davlatlar qatoridan oʻrin oldi [4]. Mazkur koʻrsatkich mamlakat eksport salohiyatining kengayib borayotganini va iqtisodiy murakkablik darajasining ortayotganini tasdiqlaydi.

Mahsulot fazosi nazariyasiga koʻra, yangi mahsulotlarni muvaffaqiyatli ishlab chiqarish mavjud kompetensiyalarga yaqin boʻlgan yoʻnalishlarda yuqoriroq ehtimol bilan amalga oshadi [5]. Oʻzbekiston eksportida kuzatilayotgan tarkibiy oʻzgarishlar ham aynan shu qonuniyat asosida shakllanmoqda. Toʻqimachilik, elektrotexnika, mashinasozlik va kimyo sanoati kabi tarmoqlarda yangi mahsulotlarning paydo boʻlishi mavjud sanoat bazasi va ishlab chiqarish tajribasining rivojlanishi bilan bogʻliq.

Qiymat yaratish jarayonining bosqichma-bosqich shakllanishi quyidagi rasmda umumlashtirilgan.



1-rasm. Toʻqimachilik tarmogʻida qiymat qoʻshish bosqichlari¹

1-rasmda aks ettirilgan bosqichlar qiymat yaratish zanjirining har bir pogʻonasida iqtisodiy samaradorlik va mahsulot murakkabligi ortib borishini koʻrsatadi. Shu sababli xomashyo eksportidan tayyor va brendlangan mahsulotlar eksportiga oʻtish mintaqaviy iqtisodiyot uchun qoʻshimcha daromad manbalarini shakllantiradi hamda eksportning sifat jihatdan yangi bosqichga koʻtarilishiga xizmat qiladi.

Mamlakat iqtisodiyotida kuzatilayotgan tarkibiy oʻzgarishlar uzoq muddatli istiqbolda ham ijobiy baholanmoqda. Xalqaro prognozlarga koʻra, Oʻzbekiston 2033-yilgacha oʻrtacha yillik 5,6 foizlik yalpi ichki mahsulot oʻsish surʼatini saqlab qolishi kutilayotgan davlatlar qatoriga kiradi [15]. Ushbu prognozlar iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarining samaradorligini aks ettiradi. Ayniqsa, resurslarning nisbatan past unumdorlikka ega faoliyat turlaridan elektronika, mashinasozlik va boshqa yuqori texnologiyali yoʻnalishlarga yoʻnaltirilishi iqtisodiy tuzilmaning sifat jihatdan takomillashayotganini koʻrsatadi [15].

Olingan natijalar ilmiy adabiyotlarda ilgari surilgan nazariy yondashuvlar bilan ham mos keladi. Eksport tarkibining murakkablashuvi iqtisodiy murakkablik darajasining oshishi bilan birga kechishi [14], yangi mahsulot va tarmoqlarning shakllanishi esa mavjud kompetensiyalar va bogʻliqlik tamoyiliga tayangan holda amalga oshishi [10] Oʻzbekiston tajribasida ham kuzatilmoqda. Bu holat mahsulot fazosi va iqtisodiy murakkablik nazariyalarining amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi hamda yuqori qoʻshilgan qiymatli mahsulotlar eksportini rivojlantirish mintaqaviy iqtisodiy oʻsishning muhim omillaridan biri ekanligini koʻrsatadi.

¹ Muallif ishlanmasi

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil mintaqaviy iqtisodiyotda yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar eksportini rivojlantirish iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri ekanligini tasdiqladi. Tadqiqot natijalari mahsulot fazosi va iqtisodiy murakkablik nazariyalari amaliyotda ham o'z tasdig'ini topayotganini ko'rsatdi. O'zbekiston eksport tarkibida qayta ishlash darajasi yuqori mahsulotlar ulushining ortib borishi, yangi mahsulot turlarining eksport portfeliga qo'shilishi hamda texnologik jihatdan murakkab tarmoqlarda yuqori o'sish sur'atlarining kuzatilishi iqtisodiyotning sifat jihatdan yangi bosqichga o'tayotganidan dalolat beradi.

Tahlillar to'qimachilik sanoati misolida qiymat yaratish zanjirining har bir keyingi bosqichida qo'shilgan qiymat hajmi ortib borishini ko'rsatdi. Xususan, tayyor to'qimachilik mahsulotlari va tikuvchilik buyumlari ulushining oshishi mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash imkoniyatlari kengayib borayotganini tasdiqladi. Shu bilan birga, ip-kalava eksportining yuqori ulushi qayta ishlashning keyingi bosqichlarini rivojlantirish orqali qo'shimcha iqtisodiy samaradorlikka erishish imkoniyati mavjudligini ko'rsatdi.

Tadqiqot davomida eksport tarkibining murakkablashuvi va iqtisodiy murakkablik darajasining o'sishi o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligi aniqlandi. Eksport portfeliga yangi mahsulotlarning qo'shilishi, transport vositalari, sanoat uskunalari va elektrotexnika mahsulotlari eksportining yuqori sur'atlarda o'sishi mamlakatning ishlab chiqarish kompetensiyalari kengayib borayotganini ko'rsatdi. Bu esa uzoq muddatli iqtisodiy o'sish uchun mustahkam asos yaratadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Tayyor va brendlangan mahsulotlar ulushini oshirish. To'qimachilik va boshqa qayta ishlovchi tarmoqlarda xomashyo va yarim tayyor mahsulotlarni tayyor mahsulotga aylantirish zanjirini kengaytirish orqali qo'shilgan qiymat hajmini oshirish maqsadga muvofiq.

2. Mahsulot fazosida bog'liq va murakkabligi yuqori yo'nalishlarni rivojlantirish. Mavjud ishlab chiqarish kompetensiyalariga yaqin bo'lgan, texnologik jihatdan murakkab mahsulotlarni o'zlashtirish eksport diversifikatsiyasining samaradorligini oshiradi.

3. Iqtisodiy murakkablik ko'rsatkichlari asosida strategik monitoring tizimini takomillashtirish. Hududlar va tarmoqlar kesimida iqtisodiy murakkablik darajasini muntazam baholab borish istiqbolli yo'nalishlarni aniqlash imkonini beradi.

4. Global qiymat zanjirlaridagi ishtirokni kengaytirish. Mahalliy korxonalarining xalqaro ishlab chiqarish va ta'minot tarmoqlariga integratsiyasini kuchaytirish eksport tarkibida ichki qo'shilgan qiymat ulushini oshirishga xizmat qiladi [13].

5. Hududiy ixtisoslashuv va sanoat klasterlarini rivojlantirish. Hududlarning mavjud resurslari va kompetensiyalariga mos ravishda yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan sanoat klasterlarini shakllantirish mintaqaviy iqtisodiy faollikni kuchaytiradi.

6. Innovatsiyalar va texnologik modernizatsiyani qoʻllab-quvvatlash. Ilmiy tadqiqotlar, texnologiyalar transferi va zamonaviy ishlab chiqarish yechimlarini joriy etish eksport qilinadigan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshiradi.

7. Milliy brendlarni xalqaro bozorlarda rivojlantirish. Marketing, dizayn va mahsulotlarni xalqaro standartlarga moslashtirish orqali eksportdan olinadigan daromad hajmini koʻpaytirish mumkin.

8. Malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish. Yuqori texnologiyali va eksportga yoʻnaltirilgan tarmoqlar uchun zarur boʻlgan mutaxassislarni tayyorlash ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi.

Tadqiqot natijalari Oʻzbekiston mintaqaviy iqtisodiyoti yuqori qoʻshilgan qiymatli mahsulotlar eksportini kengaytirish uchun zarur iqtisodiy, ishlab chiqarish va institutsional salohiyatga ega ekanligini koʻrsatdi. Soʻnngi yillarda kuzatilgan eksport tarkibining murakkablashuvi, yangi mahsulotlar va tarmoqlarning shakllanishi hamda iqtisodiy murakkablik darajasining oshishi tanlangan rivojlanish yoʻnalishining samaradorligini tasdiqlaydi. Kelgusida mazkur yondashuvlarni alohida hududlar va tarmoqlar kesimida chuqur oʻrganish hamda iqtisodiy murakkablikka asoslangan hududiy eksport strategiyalarini ishlab chiqish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. “Uzbekistan’s foreign trade turnover reached US\$65.9 billion in 2024”. UzDaily, 2025 (Oʻzbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida). URL: <https://www.uzdaily.uz/en/uzbekistans-foreign-trade-turnover-reached-us659-billion-in-2024/>

2. “Uzbekistan’s textile exports reach \$2.9bn in 2024, making up 10.6% of total trade”. Daryo, 04.03.2025. URL: <https://daryo.uz/en/2025/03/04/uzbekistans-textile-exports-reach-29bn-in-2024-making-up-106-of-total-trade>

3. Hausmann R., Hwang J., Rodrik D. What You Export Matters. Journal of Economic Growth, 2007, vol. 12(1), pp. 1-25. URL: <https://link.springer.com/article/10.1007/s10887-006-9009-4>

4. “Uzbekistan rises 25 positions in Harvard’s Global Economic Complexity ranking”. Kun.uz, 18.04.2025 (Center for Economic Research and Reforms tahlili). URL: <https://www.kun.uz/en/news/2025/04/18/uzbekistan-rises-25-positions-in-harvards-global-economic-complexity-ranking>

5. Hidalgo C.A., Klingler B., Barabási A.-L., Hausmann R. The Product Space Conditions the Development of Nations. Science, 2007, vol. 317(5837), pp. 482-487. URL: <https://www.science.org/doi/10.1126/science.1144581>

6. Hidalgo C.A., Hausmann R. The Building Blocks of Economic Complexity. PNAS, 2009, vol. 106(26), pp. 10570-10575. URL: <https://www.pnas.org/doi/10.1073/pnas.0900943106>

7. Hausmann R., Rodrik D. Economic Development as Self-Discovery. Journal of Development Economics, 2003, vol. 72(2), pp. 603-633. URL: [https://doi.org/10.1016/S0304-3878\(03\)00124-X](https://doi.org/10.1016/S0304-3878(03)00124-X)

8. Imbs J., Wacziarg R. Stages of Diversification. *American Economic Review*, 2003, vol. 93(1), pp. 63-86. URL: <https://doi.org/10.1257/000282803321455160>
9. Balland P.-A., Boschma R., Crespo J., Rigby D.L. Smart Specialization Policy in the European Union: Relatedness, Knowledge Complexity and Regional Diversification. *Regional Studies*, 2019, vol. 53(9), pp. 1252-1268. URL: <https://doi.org/10.1080/00343404.2018.1437900>
10. Cicerone G., McCann P., Venhorst V.A. Promoting Regional Growth and Innovation: Relatedness, Revealed Comparative Advantage and the Product Space. *Journal of Economic Geography*, 2020, vol. 20(1), pp. 293-316. URL: <https://academic.oup.com/joeg/article/20/1/293/5316009>
11. Hausmann R., Hidalgo C.A. The Network Structure of Economic Output. *Journal of Economic Growth*, 2011, vol. 16(4), pp. 309-342. URL: <https://doi.org/10.1007/s10887-011-9071-4>
12. “Commodity dependence runs deep. Developing countries must add value to turn the tide”. UN Trade and Development (UNCTAD), 21.07.2025. URL: <https://unctad.org/news/commodity-dependence-runs-deep-developing-countries-must-add-value-turn-tide>
13. UNCTAD. Regional Value Chains (Background Paper) - value-added trade and global value chains. URL: https://unctad.org/system/files/official-document/ecidc2013misc1_bp8.pdf
14. Harvard Growth Lab. The Atlas of Economic Complexity (Country & Product Complexity Rankings). URL: <https://atlas.hks.harvard.edu/>
15. “Uzbekistan rises in global economic complexity rankings, outpacing regional peers” (CERR / Harvard Growth Lab tahlili), 2025. URL: <https://www.app.com.pk/global/uzbekistan-rises-in-global-economic-complexity-rankings-outpacing-regional-peers/>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhah:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, avgust, 8-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**